

KIRISH SO‘Z

Assalomu alaykum, hurmatli bugungi anjuman ishtirokchilari, hurmatli ustozlar, ilm-ma’rifat ulashuvchi o‘qituvchi-professorlar, tadqiqotchilar, soha mutaxassislari!

Avvalam bor bizni bugungi tadbirga qiziqish bildirib, tashrif buyurganingiz uchun minnatdorlik bildiramiz!

Hurmatli mehmonlar, xush kelibsizlar!

Mamlakatimiz Oliy ta’lim tizimini takomillashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy hamda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar dolzarb sanaladi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni va 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 1-Ingliz tili fakulteti **Pedagogika va psixologiya** kafedrasida Oliy ta’lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yishdir.

Oliy ta’lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi “xab”ga aylantirish, Oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari va mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribani o‘rganish, hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, xalqaro tajribalar asosida Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish strategiyasi, ta’lim tizimida fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash kabi dolzarb muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha o‘zaro fikr almashish zaruriyati mavjud.

Ushbu xalqaro anjuman respublikamiz Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilm-fan, ta’lim va

ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish kabi dolzarb mavzularga bag‘ishlanadi.

Hurmatli ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari, ustozlar va qadrlı mehmonlar!

Bugungi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda beshta yo‘nalishda turli ma’ruzalar va fikrlar muhokama qilinishi nazarda tutilgan. Xususan:

– ***Zamonaviy ta’lim tendensiyalari: uzluksiz ta’lim, sun’iy intellekt, “Yashil shahar”, ta’limni raqamlashtirish jarayonini rivojlantirish istiqbollari;***

– ***Ta’lim sifatini yaxshilash: fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining dolzarb masalalari;***

– ***Pedagogik kompetensiyalar, didaktik imkoniyatlar va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishning dolzarb masalalari;***

– ***Ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning innovatsion tendensiyalari;***

– ***Ta’limda tarbiyaviy, ijtimoiy ish nazariyasi, amaliyot va psixologik masalalar.***

O‘ylaymanki, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda o‘zingizni qiziqtirgan savollarga, jumladan, ilm-fan taraqqiyotiga oid masalalar va ta’lim sohalaridagi muammolar, yutuqlar hamda ularning yechimlari yuzasidan olimlarning ma’ruzasi va muhokamalari orqali javob topasiz degan umiddaman.

Mazkur **“Ta’lim maydoni tendensiyalari: kompetensiyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman natijalari kelgusida ilm-fan rivojiga manba sifatida xizmat qilishiga ishonaman.

***Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori***